

# МУГАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМПЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 6/7 - 2022 жыл

## Илімий-методикалық журнал

### Редактор:

А. Тилегенов

### Редколлегияның ағзалары:

Максат АЙЫМБЕТОВ  
Нагмет АЙЫМБЕТОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Диңшодхұја АЙТБАЕВ  
Тұлқын АЛЛАЁРОВ  
Умида БАХАДИРОВА  
Фархад БАБАШЕВ  
Аскар ДЖУМАШЕВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Мирзамурат ЖУМАМАРУТОВ  
Аскарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Үролбой МИРСАНОВ  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Қаҳдор ТУРСУНОВ  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Саодат ТОШТЕМИРОВА  
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ  
Ризымат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА

### Шалжемлестіриүшілдер:

Қарақалпақстан Республикасы  
Халық ғылыми-мәдениеттік  
Министрлігі, ӨЗПНИИ  
Қарақалпақстан филиалы

Озбекстан Республикасы  
Министрлер Кабинеті  
жанындағы Жоқарғы  
Аттестация Комиссиясы  
Президиумының 25.10.2007  
жыл (№138) кәрары менен  
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хам  
хабар агентлигі тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге  
алынды №01-044-санлы гүйдемк  
берилген.

Мәнзіл: Нокис қаласы,  
Ерназар Алакөз көшеси №54  
Тел.: 224-23-00  
e-mail: izpniirpkkf@mail.ru,  
mugallim-pednauk@mail.ru  
[www.mugallim-uziksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uziksiz-bilim.uz)

Журналда көлем мактапалардың жуықтап шығарылмағандық, журналда жарияталған мактапалардан  
жынылған үшіндегі «Мұхиттың дағы узаккызы билимпендириү» журналының азынды, дең көрсеткішінің  
шарты. Журналда 5-6 бет көлеміндегі материалдар екінші интервалда *TIMES NEW ROMAN* оғындағы  
зерткіштің көлемінде жазылғандағы мактапалардың автор мүжіндер.

## МАЗМУН

## ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Бабаева Ш.Б. Метод моделирования - pragmaticheskiy aspekt v lingvistike.....3

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

|   |     |
|---|-----|
| <b>Norliyev A.</b> Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'limining umumnazariy masalalari va o'quvchilarda intellektual anglash malakalarini shakllantirish .....   | 10  |
| <b>Pardayeva K.Z., Zamonova Sh.S.</b> Bo'lajak o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari .....   | 14  |
| <b>Sayfullaev G.M., Sattorova D., Xaitova N.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy bilimlar haqidagi tasavvur va tushunchalarini shakllantirish hamda rivojlantirishning uslubiy asoslari ..... | 17  |
| <b>Ibrohimova M.F.</b> Boshlang`ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda grafik va jadval ko`rinishidagi topshiriqlardan foydalanish .....  | 21  |
| <b>Olloqova O'.M.</b> O'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari .....  | 24  |
| <b>Qurbanova Sh.N.</b> Boshlang'ich sinf texnologiya darslariga intensiv ta'limni tashkil etish.....  | 29  |
| <b>Yusufzoda Sh.Y.</b> Alifbe davrida yozuv texnikasini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari .....  | 34  |
| <b>Жаббарова А.Ш.</b> Бошлангич синфларда бадиий асар эпизодлари масаласи ва эстетик таҳлил методлари.....  | 38  |
| <b>Пўлотова Ю.</b> Бошлангич синф она тили ва ўқиши дарсларида ахборот-ресурслар интеграциясини таъминлашда ўқитувчи компетентлиги .....  | 41  |
| <b>Хайруллаева Д.Н.</b> Методика обучения примерам этнопедагогики на уроках родного языка и читательской грамотности в 1-2-х классах .....  | 47  |
| <b>Пўлотова Ю.</b> Бошлангич синф она тили ва ўқиши дарсларида ахборот-ресурслар интеграцияси методик муаммо сифатида .....   | 51  |
| <b>Тошпулатова Н.</b> Илмий дунёқарашни шакллантириш ва ўкувчиларни ақлий тарбиялаш (аник ва табиий фанлар мисолида) .....  | 57  |
| <b>Самиев А.С.</b> Ўқувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиясини такомиллаштирища ҳадис намуналаридан фойдаланиш.....   | 62  |
| <b>Салохитдинова Н.М.</b> Бошлангич синфларда интеграциялашган таълимни такомиллаштириш технологияси .....  | 68  |
| <b>Самиев А.С.</b> Ҳадис маънавият ва ахлоқ.....  | 73  |
| <b>Имонова М.Б.</b> Характер акцентуациясининг деструктив хулқ шаклланишига оиланинг таъсири.....   | 79  |
| <b>Джуракулова А.Х., Холиқмуродова Д.Х.</b> Бошлангич синф ўкувчиларнинг коммуникатив қобилияtlарини шакллантиришнинг психологик ва педагогик хусусиятлари .....                                      | 82  |
| <b>Xidirova M.M.</b> O'quvchi-yoshlarning ma'naviy tafakkurini shakllantirishda oila va mahallaning o'rni.....  | 86  |
| <b>Yorboboyeva I.B.</b> O'smir yoshdagi o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik imkoniyatlari.....  | 91  |
| <b>Kadirova D., Abdullayeva D.</b> Boshlang`ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning uzviyiligi va uzlusizligini ta'minlashining nazariy asoslari.....  | 95  |
| <b>Xoliyorova D.N.</b> Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanishga doir ilmiy-nazariy qarash.....                                   | 101 |

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

|   |     |
|---|-----|
| <b>Qosimov F.M., Qosimova M.M.</b> Arifmetik masalalarни yechishda tavsiya etiladigan ilmiy-usuliy mulohazalar.....   | 104 |
| <b>Умарзода Ш.А.</b> “Алгоритмик тиллар ва дастурлаш асослари” фанини ўқитиша замонавий технологиялардан фойдаланиш.....  | 109 |
| <b>Абдуқодиров Ж.Б.</b> Умумий ўрта таълим мактаблари ўкувчиларини физика фани оптика бўлимига доир ностандарт масалаларнинг мазмун-моҳияти билан танишишириш ..... | 112 |

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

|   |     |
|---|-----|
| <b>Jo‘rayeva M.S.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonini rivojlanishi, tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatlarini rivojlantirish .....       | 117 |
| <b>Xolmirzayeva Sh.M.</b> Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida steam ta’lim texnologiyasini qo’llash orqali bolalarda ijodiy faollikni rivojlantirish ..... | 120 |
| <b>Tursoatova G.T.</b> Syujetli rolli o‘yinlar orqali maktabgacha o’rta yosh guruhi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirish .....                  | 124 |
| <b>Xurramanova S.A.</b> Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni musiqa yordamida ma’naviy va axloqiy sifatlarini rivojlantirish yo‘llari.....  | 127 |
| <b>Payg‘amova J.T.</b> Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda aqliy qobiliyatlarini o’stirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....                     | 131 |
| <b>Boymurodova S.E.</b> Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy hissiy rivojlanishi.....  | 134 |
| <b>Jo‘rayeva N.Z.</b> Maktabda va oilada mehnat tarbiyasini rivojlantirish orqali tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirish .....                       | 140 |
| <b>Нигматуллаева М.И.</b> Катта ва тайёрлов гурухларда коммуникатив ўйинларни ташкил этиш орқали мулоқот кўнимасини шакллантириш .....                    | 145 |
| <b>Хайруллаева Ш.А.</b> Дидактик ўйинлар орқали болаларни мустақил фикрлашга ўргатишдаги методик имкониятлар.....   | 151 |
| <b>Пардаева Р.Э.</b> Мактабгача ёшдаги болалар мулоқот маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий психологик хусусиятлари.....                                | 156 |
| <b>Ramatjonova G.B.</b> Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ota-onalarning mashg‘ulotlar orqali pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish .....          | 162 |
| <b>Samadova Y.T.</b> Maktabgacha va boshlang‘ich mifik tab yoshidagi bolalarni ijtimoiylashtirishning ta’limdagi o‘rni va roli .....                      | 166 |

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

|  |     |
|--|-----|
| <b>Махмудова М.Қ.</b> Ёшларни жисмоний тарбия ва спортга жалб қилишда олимпия таълим мининг аҳамияти.....              | 170 |
| <b>Baxriyev J.E.</b> Yosh bokschilarining jismoniy tayyorgarligini amalga oshirish metodlari va ularning mazmuni ..... | 175 |

## BOSHLANG'ICH SINF TEKNOLOGIYA DARSLARIGA INTENSIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH

**Qurbanova Sh.N.**  
*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*

**Kalit so'zlar:** maktab, o'qituvchi, o'quvchi, sinf, intensif, pedagogika, texnologiya, ta'lism, tarbiya, kompetensiya, yo'naliш, milliy, qo'l mehnati, texnologik jarayon, xalq hunarmandchiligi, kasb-hunar, samaradorlik.

**Ключевые слова:** школа, учитель, ученик, класс, интенсив, педагогика, технология, образование, обучение, компетенция, направление, народный, ручная работа, технологический процесс, народный промысел, профессия, эффективность.

**Keywords:** school, teacher, student, class, intensive, technology, education, training, competence, direction, folk, folk craft, profession, efficiency.

**KIRISH.** O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliш bo'yicha Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan Harakatlar strategiyasida ta'lism tizimini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Unda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'naliшlaridan biri bo'lgan ta'lism tizimini takomillashtirish masalasi haqida fikr yuritilgan. Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lism jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Ta'limda turli xil texnologiyalar, ilmiy-axborot vositalarining joriy etilishi qisqa vaqt ichida katta hajmli ma'lumotlarni berish imkoniyatini vujudga keltirdi. Bu esa o'quvchiga birinchi mashg'ulotdan boshlab eng qisqa vaqt ichida talab qilinadigan o'quv materialining hajmini oshirishga imkon beradi. O'quv materialining hajmini oshirishda intensiv ta'lism texnologiyalaridan foydalanish samarali usuldir. Pedagoglar o'z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga urinmoqdalar. Hozirgi kunda barcha pedagoglar darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg'or pedagogik texnalogiyalardan foydalanishni talab etadi.

**ASOSIY QISM.** Intensiv ta'lism nima? Bu so'z fransuz tilidan "qizg'in", "kuchaygan", lotin tilidan – "baquvvat", "jonli", "tezkor", "bo'ronli", ispanchadan – "cho'zish", "kattallashtirish", "kengaytirish" deb tarjima qilinadi.

Pedagogik ensiklopediyada intensiv ta'lism quyidagicha izohlanadi: (fransuzcha "intensif", lotincha "intension" – "g'ayrat qilish", "kuchayish" "jadal") tezkor amalga oshiriladiga o'quv jarayoni.

Uzluksiz ta'lism tizimi eskirgan bilim va yo'naliшlarni muntazam ravishda yangilanishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda o'qituvchi pedagoglarga bolaga "o'rgatish" bilan birga "bilim olishga qiziqтирish" vazifasi ham belgilab berildi. Endi o'qituvchi o'rgatish bilan birga bolada bilim olishga, yangilik yaratishga motivatsiya uyg'ota olishi kerak.

Umumiy o'rta ta'lism muassasalarida "Texnologiya" fanini o'qitishdan asosiy maqsad – o'quvchilarda texnologik jarayon davomida bajariladigan jarayonlar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarasosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiylarini shakllantirishdan iborat. Materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rgatiladi. Amaliy mashg'ulotlarda texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat jarayonlarini amaliyotda qo'llay olishni malakalarini ham o'rganadilar. Texnik va kreativ fikrlashni, intellectual, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tiladigan "Texnologiya" fani darslari uzoq muddat, ya'ni birinchi sinfdan to oxirgi sinfgacha bo'lgan davr ichida o'qitilishi bilan o'quvchilar faoliyatida va mablag' hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga egadir.Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Texnologiya darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishda ko'mak beruvchi ta'lim metodlarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Faol ta'lim metodlarni maqsadli yo'naltirilgan tanlash belgilangan o'quv maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Har qanday ta'limning maqsadi – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. O'quv faoliyatida ta'lim maqsadning barcha jihatlari amalga oshar ekan, turli ta'lim metodlarni birgalikda qo'llash zarur. Shuning uchun, ta'lim metodini tanlashda eng asosiy omil bo'lib aniq o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Maktabda "Texnologiya" fani darslari tashkil etilib, ulardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni jismoniy tomonidan to'g'ri rivojlantirish, ishlab chiqarish sohalari va kasblar bilan tanishtirish, mehnat qurollari va amallari ish qurollaridan foydalanish,, mehnat olami va kishilari, oddiy buyumlarni yasashga oid mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olishni,buyumlarni tayyorlash bo'yicha mehnat jarayonlarini bajarishga oid xulosalar chiqara olishni o'rganadilar.

Har bir dars xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi.Dars vazifasini faqat bilim berish va ko'nikma hosil qilishdan iborat qilib qo'ymasligi balki tarbiya berish va kamol toptirish vazifalari bilan bog'lab olib borish ham zarur. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni qo'l mehnati mehnatiga tayyorlashda ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlariga asoslanadi.Mehnat ta'limi jarayoni o'quvchilardning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan.Birinchi sinf mehnat darslarida, dastlab tayyorlanishi kerak bo'lgan kuzatish natijasida buyum narsaning namunasi ko'rsatiladi. Bunda o'quvchilar uchun buyumning namunasi zarurligi nazarda tutiladi, bolalar unga qarab mazkur buyum narsa qanday qilinganligini, qanday qilib xuddi mana shunday tayyorlash mumiknligini,buyumni yasash yo'llarini qunt bilan izlaydilar.

Qo'l mehnati darslarida,odatda,bir yoki ikki asbobdan foydalinadi.Darsga kerakli asboblar navbatchi o'quvchi tomonidan tarqatiladi.Barcha asboblar sinf xonasining javonida saqlanishi kerak.Ish stolining ustida o'quvchilar diqqatini chalg'itadigan harsalar bo'lmasligi kerak.Ish anjomlarini har bir mashg'ulotdan so'ng oquvchilar yuvib,artib,tozalab qo'yishi kerak.Ish xonasi yorug` va toza bo'lishi kerak. O'quvchilar yaxshi yoritilmagan sinfda, yoshiga mos kelmaydigan qo'pol, og'ir asboblar bilan ishlasalar, bu ularning ish natijalariga juda yomon ta'sir ko'rsatadi.Sinf xonasida ish anjomlarini ishlatish va saqlash qoidalari eslatib turuvchi eslatmalar,ko'rgazmalar osiqlik bo'lishi kerak,Texnika xavfsizlik qoidaliga rioya qilish baxtsiz hodisalarning oldini olishning ishonchli garovidir.Sinfda texnika xavfsizlik qoidalari,mehnat darslaridagi sanitariya-gigiyena qoidalari,tejamkorlik haqida ma'lumot,qaychi bilan ishslash qoidalari,yelim bilan ishslash qoidalari,igna bilan ishslash qoidalari,pichoq va begiz bilan ishslash qoidalari kabi ko'gazmalar bo'lishi shart.

O'qituvchi yangi mavzuga metodik jihatdan qanchalik to'g'ri yondashmasin, uni suhbat va ko'rsatmada qanchalik tushunarli qilib izohlanmasin, baribir bolalar dastlabki vaqtarda mehnat usullarini har doim ham to'g'ri qo'llavermaydilar. O'quvchi ko'p savollarni mustaqil hal qilishi kerak. O'quvchilarning hayotga mustaqilligi aktiv fikrlash faoliyatini,

tashabbusni paydo bo'lishi, uchragan qiyinchiliklarni yengishi, avval hosil qilingan mehnat bilimi va malakalarini oqilona va ijodiy qo'llay bilishni o'rganish lozim.

1-4-sinflarda "Texnologiya" fani darslarida o'quvchilarga kishilarning hayotida mehnatning tutgan o'rni, eng sodda mehnat amallari va ish qurollari, ulardan foydalanishga oid dastlabki ma'lumotlar beriladi. Qog'oz, yelim,gazlama, ip, plastilin kabi materiallardan igna, qaychi, pichoq kabi mehnat qurollari yordamida sodda buyumlar, o'yinchoqlar yasash, tayyorlash orqali ularda dastlabki mehnat ko'nikmalari shakllantiriladi. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga ko'p miqdorda qog'oz turlarining borligi, mamlakatda turli xususiyatga ega bir necha yuz turdag'i qog'oz ishlab chiqarilishini misollar va ko'rgazmali materiallar orqali ko'rsatib, tushucha berib boradi.

III va IV sinflarda o'quv buyumlari konstruktsiyasi, ularni tayyorlash usullari murakkablashtiriladi va turli qalinlik, zichlik va taranglikdagi bir xil o'chamdag'i qog'oz ishlanmalarini ko'rsatib, o'qituvchi amalda ushbu modelni tayyorlash uchun chizma va karton qog'oz yaxshiroq mos kelishimi ko'rsatib beradi. O'quvchilar qog'oz va kartonning mustahkamligi, qalinligi, egiluvchanligi va sinuvchanligini aniqlash va taqqoslashning elementar usullari bilan tanishib boradilar. III sinf o'quvchilari kerakli kuzatishlar orqali qog'oz va yupqa kartondan detallarni bukish, qo'shish, kesish va yelimalash mehnat operatsiyalarini bajarish jarayonida olingen bilimlardan foydalanadilar. IV sinfda o'quvchilarni qog'oz va kartonning fizikaviy va texnologik xususiyatlarni o'rgatiladi. Texnologiya darslarida foydalanadigan boshqa materiallar – gazlama, tabiiy material, plastmassa plyonkalar xususiyatlari bilan taqqoslaydilar. Turli materiallar bilan ishlash darslarining texnologik xususiyatlari, qog'oz va karton bilan ishlash hamda gazlama va tolali materiallar bilan ishlash darslaridan farq qiladi. Chunki qog'oz, karton va gazlama hamda tolali materiallar tayyor mahsulot bo'lib, ulardan turli o'yinchoqlar yasaladi, ularning chiqindilaridan ham tejamkorlik bilan foydalanish o'rgatiladi.

Turli materiallar bilan ishlashda qaysi narsadan nimalar yashash mumkinligini avvaldan rejalah, anchayin izlanib, tabiat qo'ynidan axtarib topib, yig'ib olingandan so'ng, reja asosida turli o'yinchoqlar, ertaklar asosida ko'rsatmali ko'rinishlarga boy personajlar yashash mumkin. Texnologiya darslarida turli tabiiy materiallar- daraxt novdalari, qamish, poxol, g'o'za chanoqlari, yong'oq, qum, loyning ishlatilishi hamda plastic massalar: plastilin, rezina, sellofan, polietilin lentalar, plyonkalar, gugurt qutilari, g'altak, iplar, turli chiqitlar; tuxum po'chog'i, xandon pista po'chog'i, danak po'choqlari, bo'shagan plastmassa idishlari ishlatiladiki, ana shunday tashlab yuborilishi mumkin bo'lgan narsalardan chiroyli, go'zal o'yinchoqlar, ertak qahramonlari, turli ko'rsatmali manzaralar yashash mumkinligi tejamkorlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlar ko'pligini ko'rsatadi. Tashlandiq narsalardan ham kerakli buyumlar, estetik zavq olsa bo'ladigan, ayniqsa, o'z ko'rinishi, mazmuni bilan bolalarni tarbiyalashi mumkin bo'lgan narsalar yasalishi ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Turli tabiiy materiallarni to'plash, saqlash yo'llarini, ularga ishlov berish yo'llarini qo'llash bolalarga tabiatshunoslik darslarida olgan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Turli tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotlarni rejalahshtirish va materiallarni tanlashda, albatta, mahalliy sharoitlardan kelib chiqish, o'lka iqlimi, tabiat, ishlab chiqarish korxonalar, xalq badiiy ustaxonlari va shu kabilar e'tiborga olish kerakligini unutmaslik lozim. Bunday mashg'ulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stiribgina qolmay, ularning ijodkorligini o'stiradi, estetik hissiyotlarni shakllantiradi. Turli materiallarning o'ziga xos texnologik xususiyatlari xilma-xilki, ulardan narsalar yashashda material sifatida ham, yasalgan narsaga bezak berish materiali sifatida ham foydalanish mumkin. Tabiiy materiallar bilan ishlashda, ayniqsa, o'quvchilar loy, plastilin va tabiiy materiallar, jumladan, daraxtlarning shoxlari, chinor urug'lari, turli qurigan barglar, daraxt po'kaklari, yelimalardan foydalanib qushlar, jonivorlar, ertak ishtirokchilarining shakllarini qiziqib yasaydilar. O'z tasavvurlaridagi personajlar,obrazlar bilan boyitadilar. Turli materiallar bilan ishlashda o'quvchilar ishslash qoidasiga, texnika xavfsizligi qoidalariga, gigiyena-sanitariya holatlariga rioya qilibgina qolmay, telamkorlikka ham alohida e'tibor beradilar. Boshlang'ich sinf "Texnologiya" fani

darslarida bevosita o‘quvchilarga kasb tanlashga oid tavsiyalar va ishlab chiqarish asoslariga oid ma’lumotlar ko‘proq beriladi. Bunda o‘quvchilarga kasb turlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, kasb tanlashda nimalarga e’tibor berish zarurligi haqidagi ma’lumotlar o‘rgatiladi. Bu kasblardan qaysi birini tanlash o‘quvchilarning o‘zlariga havola etiladi. Mazkur fani darslarini o‘qitishdan oldinga qo‘yilgan asosiy ish o‘quvchilarning jismoniy tomondan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlash, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish va amaliy ish bajarish ko‘nikmalarini tarkib toptirishdir. O‘quvchilarga ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarish sohalari, bunda qo‘llaniladigan asbob-uskunalar va mexanizm-mashinalar, ularning turlari va ishlatalishi bilan tanishtiriladi hamda oddiy buyumlarni tayyorlash o‘rgatiladi.

Darslar jarayonida turli tabiiy hamda metallmas materiallarga texnologik usullar asosida ishlov berish ishlarini o‘rgatish orqali o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro‘zg‘orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarga “Texnologiya” fani yo‘nalishlari bo‘yicha kasb turlari haqida axborotlar beriladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzuksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi:

- mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera olish, mustaqillik yillarda mamlakatimizdagi barcha sohalarda o‘sish sur’atlarini bilish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni o‘qiy olish va foydalana olish;

- o‘quvchilarda umummehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularning qiziqishlari, qobiliyatları, kasbiy moyilliklariga ko‘ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo‘ladigan xislatlarini, umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;

- o‘quvchilar tomonidan bajariladigan, moddiy ne’matlar yaratishga qaratilgan aqliy va jismoniy harakatlar mehnat jarayonidan iborat bo‘lib, ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma’lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini va malakalarini egalashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida mehnat faoliyatiga qo‘shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shundan kelib chiqib, “Texnologiya”fani DTSda quyidagicha belgilangan:

- turli ishlab chiqarish sohalari mazmuniga taalluqli dastlabki ma’lumotlarni o‘rgatish, o‘lhash-tekshirish asboblaridan, ma’lumot manbalaridan foydalana olish, mehnat amaliyotlarini bajarish, erishilgan mehnat natijalarini belgilangan talablar bilan taqqoslash orqali xulosa chiqarishga o‘rgatish;

- xalq xo‘jaligining turli sohalarida ishlataladigan texnika va texnologiyalar to‘g‘risida bilimlar berish, inson faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratish;

- mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, texnologik bilim va malakalarini, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi qoidalari, sanitariyagigiyena talablari asoslarini o‘rganish;

- o‘quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini talablari asosida sifatli, raqobatbardosh iste’mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirish va yetishtirilgan

- mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazish vositalarini o‘rgatish, ish boshqaruvchi (menejerlik), homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirib borish va rivojlantirish;

- o‘quvchilarga bilimga intilish va mehnatga muhabbat, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- xalq hunarmandchiligi kasblarini o‘rgatish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an’analarini tiklash va rivojlantirish. Milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq

ustalarining boy merosini o'rgatish, ulardan o'z amaliy faoliyatida foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash;

– yangi ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi, yangitexnika va jihozlarning qo'llanilishi sohalarini zamonaviy talablar darajasida va jahontajribalariga mos holda o'rghanishlarini ta'minlash;

– yuqori sinflarda turli mutaxassisliklarning kasbiy faoliyatida qo'llaniladiganasbob-uskunalar, jihozlar, moslamalardan foydalanishni o'rgatish. Bulardan ko'rindiki, "Texnologiya" fani maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli "Texnologiya" fani darslarini tashkil etish va o'tkazishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ayniqsa, bunda yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi deb hisoblaymiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, texnologiya darslarida darslikda berilgan topshiriqlardan tashqari mana shunday faol metodlar ustida ishlashi ularning izlanuvchanlik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshishida yaxshi samara beradi. Ushbu fanga bo'lgan qiziqishini yanada ortishiga yordam beradi. Shuni e'tiborga olish kerakki, faol metod tanlash nafaqat ta'lim maqsadiga, balki o'quv materiali mazmuniga ham bog'liq bo'ladi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishda ko'mak beruvchi ta'lim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faol ta'lim metodlarni maqsadli yo'naltirilgan tanlash belgilangan o'quv maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Har qanday ta'limning maqsadi – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikmalarini va malakalarini shakkantirishdan iboratdir. O'quv faoliyatida ta'lim maqsadining barcha jihatlari amalga oshar ekan, turli ta'lim metodlarni birgalikda qo'llash zarur. Shuning uchun, ta'lim metodini tanlashda eng asosiy omil bo'lib aniq o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi. *«Orgimchak ini» metodi, «Breyn-ring» metodi, "Yozma yumaloq stol" metodi, "Kelishuv va ziddiyat" metodi, "SWOT" taxlil jadvali metodi, "Pinbord", «Kaskad», Venna diagrammasi, «Sinkveyn» metodi, «Kubik» metodi, «T - cHEMA» metodi, «Balik skeleti» metodi, «Blits uyin» (To'lqinsimon) metodi, «Portfolio» metodi, «BBB» metodi, «Ajurli arra» kabi ta'lim metodlari* o'quv jarayonida o'quvchilarda mantiqiy,aqliy,ijogiy,tanqidiy,mustaqil fikrlashni shakkantirishda va rivojlantirishda hamda hayotga uchraydigan turli xil vaziyatlarga chiqo olish,muammolarni echa olishga yordam beradi. Ushbu metodlar o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga ,mantiqiy fikrlashga,o'rghanayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar,ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishini,o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olishni o'rgatishga qaratilgan.

**XULOSA.** Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, shuni aytish joizki, "Texnologiya" fanini o'qitishda har bir o'quvchining shaxsiy (individual) xususiyatlarini hisobga olingan holda mashg'ulotlar o'tkaziladi. O'quvchining faolligi o'z-o'zidan oshmasligini, balki bu ongli munosabat natijasi ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur. Modomiki, faollik onglilik natijasida vujudga kelar ekan, u ta'lim tarbiya ishining mazmuni, tashkil etish shakli, amalga oshirish metodlari va vositalarini o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

## ADABIYOTLAR:

- Pedagogika ensiklopediya. 2 jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2015,- 376bet.
- buyumni yasash yo'llarini qunt bilan izlaydilar.
- Abdullayeva F. TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3.

4. Qurbanova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C.1030-1035.
  5. Mukhamadovna T. M., Djamshitovna K. M., Narzullayevna Q. S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //Middle European ScientificBulletin.– 2021.–T.11.

## REZYUME

Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Texnologiya fanini o'qitishda o'quv faoliyatida qo'llaniladigan texnologik jarayonlar haqida bayon etilgan. Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilami dunyoqarashni shakllantirishga bajariladigan amaliy mashg'ulotlar yuzasidan fikr yuritilgan. Texnologik ta'limi orqali o'quvchilarda kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлен технологический процесс предмета "Технология" для преподавателей средних специальных учебных заведений. На уроках технологии, которые проводятся для формирования мировоззрения учащихся необходим практический аспект работы.Через технологическое образование важно формировать у учащихся компетенции выбора профессии, основанные на национальных и общечеловеческих ценностях.

## SUMMARY

This article presents the technological process of the subject "Technology" for teachers of secondary specialized educational institutions. At the technology lessons that are held to form the worldview of students, a practical aspect of work is necessary. Through technological education, it is important to form in students the competencies of choosing a profession based on national and universal values.

## **ALIFBE DAVRIDA YOZUV TEXNIKASINI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Yusufzoda Sh.Y.**  
**Buxoro davlat universiteti**  
***Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasи o'qituvchisi***

**Kalit so'zlar:** yozuv, texnika, dars, mashq, avtoruchka, harf elementlari, tizim, ta'lif, ilmoq.

**Ключевые слова:** письмо, техника, урок, упражнение, перьевая ручка, элементы письма, система, образование, крючок.

**Key words:** writing, technique, lesson, exercise, fountain pen, letter elements, system, education, hook

Vatanimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlaboq jamiyatni isloq qilish va yangilash jarayonining eng muhim bo'g'ini, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, Respublikani jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta'lim sohasini isloq qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmogda.

Xalq ta’limi vazirligining buyrug’iga asosan DTS, o’quv dasturlari ekspertizadan o’tkazildi va shu xulosa asosida umumiy o’rta ta’limning yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti, modernizatsiya qilingan o’quv dasturlari tayyorlandi va tajriba – sinovdan o’tkazilib, avni damda amalga tatbiq etilmoqda.